



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 52-55 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TURIZMNING RIVOJLANISHIDA XUSUSIY SEKTOR FAOLIYATINING DOLZARBLIGI VA ISTIQBOLLARI



**Abdullabekova Noilaxon G`ofurjon qizi**

Namangan davlat universiteti, iqtisodiyot fakulteti,  
mehmonxona xo`jaligini tashkil etish va boshqarish  
yo`nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: [abdullabekova202n@gmail.com](mailto:abdullabekova202n@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada xususiy tadbirkorlik faoliyatining turizm sohasidagi ahamiyati, mavjud muammolar va hozirgi davrgacha qo`llanilib kelingan imtiyozlarning mohiyati hamda bundan keyingi muddatda turizmni rivojlantirishda samara ko`rsata oluvchi imtiyoz turlari haqida tushuncha berib o`tildi. Xususiy sektorni rivojlantirish orqali mamlakat YaIM ining o`shish ko`rsatkichiga sezilarli ta`sir qilishga imkon beruvchi yo`nalishlar ham tushuntirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** turizm sektori, xususiy tadbirkorlik, davlat-sherikchilik faoliyati, soliq imtiyozlari, barqaror texnologiyalar, YaIM ning o`shish ko`rsatkichlari, soliq chegirmalari.

#### **Kirish**

Jahonda iqtisodiy rivojlanish jarayoni barcha sohalarni birdek qamrab olish ishlari bilan olib boriladi. Turizmning iqtisodiy rivojlanishga ta`siri O`zbekistonda ham so`ngi yillarda ancha sezilarli natija bera oldi. Har qanday holatda bozor iqtisodiyoti sharoitiga amal qilgan holda iqtisodiy tizimni muammolarsiz yurgazish samaralidir. Bunda asosan aholi uchun xususiy tadbirkorlik faoliyatini olib borishiga keng yo`l ochish orqali ularni bozorda erkin raqobatbardosh tadbirkorlik sub`ekti bo`lishiga imkon beradi. Turizm sohasida O`zbekistonning turizm salohiyati ko`rib chiqilganda, asosan, ekologik va rekreatsion turizmning rivojlanish istiqbollari yuqori. Davlat tasarrufida ko`plab yer maydonlari va hududlar bor ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, ushbu maydonlarni aholi uchun xususiy shaklda yoki davlat-sherikchiligi asosida taqdim etilishi muammolarga bir yechim bo`lishi mumkin. Davlat o`z tasarrufidagi dam olish maskanlari, sanatoriylar, ekologik hududlarni xususiy tadbirkorlik qilish istagidagi fuqaroga berishi orqali turizmni ham rivojlanishi uchun sharoit yaraladi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Turizmda dam olish maqsadida keluvchi sayohatchilarni jalb qilishda albatta katta salohiyatga ega bo`lgan turizm maskanlarining o`rni yuqori bo`ladi. Turist talabini qondira olgan dam olish maskani esa, keyingi safarda ko`plab sayohatchilar miqdorining oshishiga olib keladi. Turizmda davlat tomonidan beriladigan yordamlarning xususiy sektor rivojlanishida o`rni katta. Shu ishlarni davlat siyosati doirasida amalga oshirilyapganligiga bir isbot sifatida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirish dasturi ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini keltirish mumkin. Ushbu qonunda “...zamonaviy xizmat ko`rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar-joylar, savdo-ko`ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun bo`sh yer uchastkalarini aukcion savdolariga chiqarish choralari ko`rilsin”<sup>1</sup>[1] deya belgilab qo`yilganligi ham ushbu masalani dolzarb ekanligini belgilaydi.

Turistik dam olish maskanlari faoliyati yillar davomida o`sb borayapganligi aholi mana shu sohadan foyda olyapganligiga bir isbot bo`ladi. Rasmiy statistika ma`lumotlariga qaraydigan bo`lsak O`zbekistonda faoliyat yurituvchi turistik firma va tashkilotlarning soni o`sb borayapti. Soliq imtiyozlari qo`llanilgani sayin har bir faoliyatda yengilliklar vujudga keladi va ushbu faoliyatning keng tarmoqlarda rivojlanishiga imkon yaratiladi. Shuningdek turizm klasterlarining faoliyati ham turistik bazalar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

#### Faoliyat ko`rsatayotgan turistik firma va tashkilotlar soni (yillar kesimida)<sup>2</sup>[2]

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O`zbekiston Respublikasi	449,0	502,0	517,0	337,0	288,0	348,0

Iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun mamlakat hududida iqtisodiy jihatdan sekin rivojlanayotgan hududlarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda turizmning ma`lum bir turlariga moslashtirish va ushbu tashkil etiluvchi yangi turistik dam olish maskanlarining rivojlanish nuqtasiga kelguniga qadar soliq imtiyozlarini qo`llash unumli bo`ladi. Bunda shuningdek tadbirkorlar o`z faoliyatlarida energiya va resurs tejovchi qurilmalardan foydalanish holati samarali bo`lishi mumkin. O`zbekistonga xorijlik sayohatchilardan kelib tushuvchi pul miqdori yuqori ekanligini olsak, ushbu faoliyatga xorijliklarni jalb qilish bilan shug`ullanuvchi marketologlar, turoperatorlar kabilar faoliyatiga erkinlik berish samarali bo`la oladi. Shuningdek, xususiy sektorni rivojlantirishda reklamani o`rni yuqori va ayniqsa, eng ko`p sayyoh tashrif buyuruvchi mamlakatlardan keluvchi mehmonlarga yurtimizning sayohat imkoniyatlarini tanishtirish muhim.

Hukumat ijtimoiy media platformalarida akkaunt ochishi yoki dunyoga mashhur sayyohlik dasturlarini O`zbekistonga hamkorlikka taklif qilishi va mamlakatni xorijiy OAV iste`molchilariga tanishtirishi mumkin. So`ngi yillarda butun dunyo bo`ylab 2018-yilda 277,3 mlrd dollar sarflagan xitoylik sayyohlar sonining o`sishi kuzatilgan. Ayniqsa, Xitoylik sayyohlarni jalb qilish uchun O`zbekiston ularning mahalliy ijtimoiy tarmoqlariga, jumladan, Weibo va WeChatga e`tibor qaratishi, reklama materiallari joylashtirishi kerak.<sup>3</sup>

#### Natijalar va muhokama

Turizm sohasi sub`ektlaridan undiriladigan soliqlardan olinadigan daromadlar turistik infratuzilmasiga investitsiyalarni kirishini qo`llab-quvvatlashi mumkin. Bularning

<sup>1</sup> O`zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 07.05.2024 yildagi 268-son <https://lex.uz/-6924501>

<sup>2</sup><https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

<sup>3</sup> Na Sha, Robert Cekuta, TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN – CHALLENGES AND OPPORTUNITIES, <https://www.caspianpolicy.org/research/report/special-policy-brief-turism-development-in-uzbekistan-challenges-and-opportunities-9656>

barchasi davlat xarajatlariga to'g'ri keladi va jamoatchilikka foyda keltirsa-da, turizm sohasiga ham foyda olib keladi. Lekin shuni ham ko'rib o'tishimiz joizki turizmga qo'yiladigan soliqlarning oshib ketishi, turistik xizmatlar narxining ham oshishiga sabab bo'ladi.<sup>4</sup>[3, 175]

Soliq tabiiyki mahsulot tannarxining ichiga kirib ketadi va shu tufayli mahsulotning sotuvdagi narxi ko'tarilishiga olib keladi. Bunday holatda iste'molchilar holatiga, talablariga ko'ra ish olib borilmasa, mahsulotning bozorda to'laqonli qolib rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda xususiy sektor tashkil etgan tadbirkorlarning faoliyat yo'nalishi asosan ishlab chiqarish bo'lyapganligini hisobga oladigan bo'lsak, ular ishlab chiqarishlariga foydani yuqorilatish uchun ko'plab sarmoya kiriyaptilar. Turizm ham shunday hol bo'ladi. Bunday holda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'lishi kerak.

Jahondagi yirik mamlakatlarning YaIM hajmini ko'rib chiqadigan bo'lsak ularda katta ulush turizm xizmatlariga to'g'ri keladi.

Jahon turizmining ulushi YaIMning 3,6 foizini tashkil etadi (turizmning turdosh tarmoqlarga ta'sirini hisobga olgan holda – 10,6 %) va global investitsiyalarning 9,5 % ini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM ning 15% turizm xizmatlaridan iborat.<sup>5</sup>[4, 106]

### **Xulosa**

Xulosa sifatida quyidagilarni taklif etishimiz mumkin:

- Davlat tasarrufidan xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yer maydonlari va bo'sh binolarni ajratish;
- Ba'zi hududlarda mehmonxonalarda qolish yoki dam olishda foydalaniladigan QQS miqdorida pasaytirilgan stavkalarda narx qo'llanilishi;
- Yangi tashkil etilgan turistik korxonalar yoki faoliyatini tez su'ratlarda kengaytirayotgan va rivojlanyotgan sektorlar uchun ma'lum bir davr mobaynida soliq chegirmalari qo'llanilishi muhimdir;
- Turizm kengashlari boshchiligida turizm hamda yangi innovatsion g'oyalar bilan faoliyat yurgiza oluvchi korxonalar uchun grandlarning joriy etilishi.

Yuqorida keltirib o'tilgan imtiyozlarning qo'llanilishi korxonalar uchun umumiy soliq yukini kamaytirishda xizmat qiladi va xususiy sektorlar faoliyatini ko'paytirishga keng yo'l ochadi. Tadbirkorlar ham o'z faoliyatlarini samarali yurgiza olishlari uchun barqaror texnologiyalardan foydalanishni o'rganishlari muhimdir. Qanchalik kamroq va tejamkorroq holda faoliyatiga texnologiya hamda yangi loyihalarni joriy etsa shuncha narxi kamayadi. Narx asosan iste'molchilarda muhim e'tibor qaratiluvchi jihat ekanligini hisobga olganimizda narxi pastroq sifati ham qulay bo'lgan xususiy sektorlar faoliyatida yaxshi samaraga erishishlar ko'zga tashlanadi. Xususiy kompaniyalarning yana bir ahamiyati shundaki, ular o'z faoliyatlarida ko'p hollarda innovatsiyalarni olib boradilar, mijozlar xohishlariga mos keluvchi, raqobatbardosh bo'ladigan yangi loyihalar ishlab chiqishadi va amaliyotga joriy etishadi. Marketingga ham ko'p sarmoya kiritgan holda ish

<sup>4</sup> Abdullayev.Z.S., Abdullabekova.N.G'(2023) O'ZBEKISTON VA XORIJ MAMLAKATLARIDA TURISTIK FAOLIYAT SUB'EKTLARINI SOLIQQA TORTISH TAJRIBASI/ "Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi" jurnali

<sup>5</sup>Барлыбаев А.А.\ Ахметов В.Я.\ Насыров Г. М.\ Туризм как фактор диверсификации сельской экономики \ \ Проблемы прогнозирования. 2009. –№6– С. 106

olib boradilar va bu orqali davlatning turisrik salohiyatini jahon miqiyosida tanilishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 07.05.2024 yildagi 268-son <https://lex.uz/-6924501>
2. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
3. Abdullayev.Z.S., Abdullabekova.N.G` (2023) O`ZBEKISTON VA XORIJ MAMLAKATLARIDA TURISTIK FAOLIYAT SUB`EKTLARINI SOLIQQA TORTISH TAJRIBASI/ "Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi" jurnali
4. Na Sha, Robert Cekuta, TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN – CHALLENGES AND OPPORTUNITIES, <https://www.caspianpolicy.org/research/report/special-policy-brief-turism-devolopment-in-uzbekistan-challenges-and-opportunities-9656>
5. Барлыбаев А.А.\ Ахметов В.Я.\ Насыров Г. М.\ Туризм как фактор диверсификации сельской экономики \ \ Проблемы прогнозирования. 2009. –N6– С. 106

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

